

## O'QITUVCHINING INNOVATSION FAOLIYATI

Nasimov Doston Sobir o'g'li, JDPU, magistr

**Annotatsiya:** Maqolada pedagogik faoliyat, pedagogik hamkorlik xususiyatlari, dars jarayoni va unda turli usullarni qo'llash masalalari bilan bir qatorda o'qituvchining nutq mahorati hamda talabalarda o'z-o'zini ishontirish xususiyatlarini shakllantirish masalalari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** dars, innovatsiya, maqsad, g'oya, eshitish, suhbat, muloqot, vaqt, psixologik ta'sir, ishontirish, o'z-o'ziga ta'sir, autogen mashqlar, ishontirish, ishonch, e'tiqod, shaxsning hayot tarzi, ruhiy qiyofa, iroda.

**Аннотасия:** В статье описывается педагогическая деятельность, рассматриваются особенности педагогического сотрудничества, процесс урока и использование в нем различных методов, речевые навыки учителя и формирование у учащихся уверенности в себе.

**Ключевые слова:** урок, инновация, цель, идея, слушание, беседа, общение, время, психологическое воздействие, убеждение, самовоздействие, аутогенные упражнения, убеждение, доверие, убеждение, образ жизни человека, мысленный образ, воля.

**Abstract:** The article describes pedagogical activity, discusses the features of pedagogical cooperation, the process of the lesson and the use of various methods in it, the speech skills of the teacher and the formation of self-confidence in students.

**Keywords:** lesson, innovation, goal, idea, listening, conversation, communication, time, psychological impact, persuasion, self-influence, autogenic exercises, persuasion, trust, persuasion, human lifestyle, mental image, will.

Oliy pedagogik ta'limdagi dars – pedagogik ijodkorlikning asosiy maydonidir. O'qituvchining asosiy pedagogik ehtiyoji – o'rgatish, yetkazib berish – aynan dars jarayonida amalga oshiriladi. Shunday ekan, dars oliy pedagogik ta'lim jarayonini tashkil qilishga innovatsion yondashuvni, yangicha munosabatni talab qiladi.

Standartlashtirilgan darslar jarayonida o'qituvchi oldida muhim bir masala turadi, ya'ni talabalarni ilg'or zamonaviy bilim olishga jalb qilish, ularni innovatsion ta'lim sari olg'a harakatlantirishdir. Bu esa o'qituvchi va talabalarni birgalikdagi mehnatga jalb qiladi. Buning uchun, talabalarni o'qitishda majbur qilmaslikni talab qiladi. Pedagogik hamkorlikning xususiyatlaridan biri – darsda talabadagi qo'rquvni yo'qotish, uni erkinrok, dadilrok ishtirokini ta'minlash, o'zining kuchiga ishontirish, unga jiddiy, ijod qilishga qodir shaxs sifatida qarashdir.

Darsda aniq maqsad g'oyasini e'lon qilish maqsadga muvofiqdir. Bu talabalar bilan hamkorlik ruhida ish olib borish, ularga aniq bir maqsad ko'yib, bu maqsadning murakkabligiga va buni amalga oshirishga ishonirish - ularda o'ziga bo'lgan ishonchini, aniq, mushkul masalani ham yecha olish mumkinligini shakllantiradi.

Dars o'tish jarayonida faqat suhbat bilan chegaralanmay, talaba xotirasini shakllantirish, mantiq, tasavvur, fikrlay olishini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Chunki, talabalarning ijodiy fikrlashini shakllantirish shaxsiy sifatlaridagi notekisliklarni, nuqsonlarni bartaraf qilishga yordam beradi. Ularda erkin fikrlash kamol topadi. Natijada, talabalar o'tiladigan mavzuni oz bilsada, muhokama qilishda faol o'qituvchi qaysi darsni o'tishdan qat'iy nazar, hech qanday keraksiz, ortiqcha narsalarga to'xtalmay, har bir mavzuni aniq, ravshan, lo'nda tushuntirishi va shu bilan birga talabalarni individual va jamoa, o'z-o'ziga baho berishga o'rgatishi lozim.

Dars o'tish davomida o'qituvchi shunday usullardan foydalanish kerakki, talabalar o'zlarini shaxs sifatida his qilishsin. Bu – har bir talaba har bir darsda o'zining bahosini olishi, masalalarni o'zi tanlab olishda namoyon bo'ladi. Har kim o'z guruhida himoya ostida, hech kim uning bilimiga shubha bilan qaramaydi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati asosida notiqlik mahorati birlamchi o'rin tutadi bular:

- Savol berish mahorati;
- Eshitish mahorati;
- Tana tilida tushuntirish mahorati;
- Hikoya tuzish mahorati;
- Axborotni xotirada saqlash va uni uzatish mahorati va hokazo.

O'qituvchining innovatsion faoliyatida vaqt muhim o'rin tutadi. Vaqt menejmenti;

Vaqt–nima?

Nima uchun?

Qanday qilib?

“Vaqt o'g'rilari” omadli inson bo'lib yetishishimizda bizga to'sqinlik qiladi. “Agar vaqtni boshqarmasang, u qo'lingdan uchib ketadi”, deb ta'kidlaydi Serill Parkinson. Vaqt haqida Vilfredo Pareto 80/20 qoidasida shunday deydi, “Inson umrining 80,0 %ini mayda-chuyda, keraksiz ishlarga, 20,0%ini muhim, dolzarb ishlarga sarflar ekan”. Devid Eyzenxauer matritsasi mohiyati esa, “Ishlarni muhim-muhim emas, dolzarb-dolzarb emasga toifalash”, deb ta'kidlaydi

O'qituvchining innovatsion faoliyatida mahorat, ijodkorlik, novatorlikni asos deb oladigan bo'lsak, u holda IMAK-Ishontirish maktabi texnologiyasiga to'xtalib quyidagi savollarga javob beramiz:

1. Talabalarni ishontirish va uning shakllari.
2. Pedagogik – psixologik ta'sir turlari.
3. O'z-o'ziga ta'sir etish.
4. Autotrenirovka.

Ishontirish – shaxsning bilimlar tizimiga, dunyoqarashiga, xulq-atvoriga, hatti-harakatiga ta'sir eta olish va uni qisman o'zgartirish tushuniladi. Ishontirish va ishonch haqiqiy va soxta bo'lishi mumkin. Haqiqiy ishonch, e'tiqod shaxsning hayot tarziga, uning ruhiy qiyofasiga, iroda va vijdoniga ta'sir etgani uchun ham inson o'z ishonchini – e'tiqodini himoya qilib, ba'zan o'linga ham tayyor bo'ladi.

Pedagogik jarayonda talabalarga psixologik ta'sir etish muammosi bilan psixologlar, tibbiyot xodimlari va boshqa mutaxassislar faol shug'ullanmoqdalar, chunki ta'lim va tarbiya jarayonining o'zi o'qituvchining talaba ruhiyatiga, ongiga, dunyoqarashiga doimiy ta'siri deb qarasa bo'ladi. Keyingi yillarda zamonaviy psixologiyaning psixoanaliz, gumanistik psixologiya, neyrolingvistik dasturlash, bixevorizm va kognitiv psixologiya kabi yo'nalishlari paydo bo'ldi va bu oqimlarning ba'zi bir metodlari umumiy va oliy maktabga kirib kelmoqda.

Shaxsning kamol topishida o'z-o'ziga ta'sir etishning ahamiyati juda katta. Talabalar ko'pincha o'zlaridagi yomon odatlarni (chekish va boshqalar), o'z salbiy shaxsiy xususiyatlarini bilgan holda uni tuzatish yo'llarini bilmasdan qiynaladilar yoki irodasi sustlik qiladi. O'qituvchi talabalar orasida o'z-o'ziga ta'sir etishning yaxshi tomonlarini mashhur kishilar hayoti misolida targ'ibot qilishi zarur. Jismonan va ruhan kuchsiz, nogiron shaxslarning turli mashqlar yordamida sport, ilmu-fan, ijod va boshqa sohalarda buyuk muvaffaqiyatlarga erishganliklarini hikoya qilib berish talabalarga ijobiy ta'sir etadi. Talabalar o'zlaridagi uyatchanlik, ishyoqmaslik, o'ziga ishonchsizlik kabi yomon shaxsiy xususiyatlarini yo'qotishga intiladilar. Professor o'qituvchilar va o'quv yurti psixologlarining vazifasi ularga yaqindan yordam berishdir.

Ko'pincha, o'z-o'ziga ta'sir etish bilan yaxshi o'qiydigan, tartib-intizomli, odob-axloqli lekin, shaxsidagi ba'zi bir yomon odat va kamchiliklarni tuzatishga intilgan yoshlar jalb qilinadi. Aslida, bunday ishga guruhdagi «tarbiyasi og'ir», o'zlashtirishi yomon talabalarni ko'proq jalb etish va ularni o'z-o'ziga ijobiy ta'sir etishga qiziqtirish va o'rgatish zarur.

Buning uchun o'qituvchining o'z-o'ziga ta'sir etish metodlari – “Autogen trenirovka” – (auto - “o'ziga” degan ma'noni bildiradi) – o'z-o'ziga ta'sir etish

mashqlarning qadimiy ildizlar, qadimiy hind jo'gilari (yoglari) tomonidan yaratilgan o'z-o'zini jismdan va ruhan kamol toptirish uchun yaratgan metodlarning zamonamiz kishilariga moslashtirilgan shaklidir.

O'qituvchi talabalarga autogen mashqni o'rgatish uchun o'zi quyidagilarni yaxshi bilishi zarur:

1. Talabalar autogen mashqni o'tkaziladigan joyni tanlashda uning tinchligi, boshqa kishilarning yo'qligiga e'tibor berish.
2. Stul, kreslo yoki yerda qulay o'tirish.
3. Badanni qisib turadigan narsalar bo'lmasligi.

Bu talabalar asosan autogen mashqlarni yakka tarzda o'tkazish uchun mo'ljallangan ammo, autogen mashqlarni guruh tarzida ham o'tkazish mumkin. Bunday mashqlarni o'tkazishdan maqsad talabalarga autogen mashqlar bilan mustaqil shug'ullanish malaka va ko'nikmalarini shakllantirishdir.

4. Talabaga psixologik ta'sir etishni boshlash yoki o'z-o'ziga ta'sirning samarador kechishi uchun avvalambor jismonan va ruhan bo'shashish - ya'ni relaksatsiya holatiga - butunlay osoyishtalik holatiga tushishni o'rgatish kerak.

Relaksatsiya asosan sinfda yuz bergan murakkab pedagogik vaziyatlarda, pedagogik qarovsiz, tarbiyasi og'ir, infantil va psixopatsimon xarakterli bolalar bilan ishlashga to'g'ri kelganda qo'llash yuqori samara beradi.

Chunki, bu talabalarning ko'pchiligi betoqat, tinimsiz bo'lib ularga tinchlanish, osoyishtalik ijobiy ta'sir etadi.

Ammo, shu narsani unutmaslik kerakki, talabalar bilan psixotrening va autotrening mashqlarini o'tkazish uchun o'qituvchi shu metodlarni yaxshi egallagan bo'lishi kerak.

Demak, o'qituvchi tomonidan berilayotgan axborot (yoki ma'lumot) talaba tomonidan to'siqlarsiz qabul qilinadi va uning ta'sir kuchi yuqori bo'ladi. Maqsad talabalarning o'z-o'zlariga psixologik ta'sir etishni o'rgatishdir. Bunga erishish esa har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashdagi, yuqori malakali mutaxassisni tayyorlashdagi asosiy qadamdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Raximov B. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy madaniy munosabatlarning shakllanishi. / Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2005.
2. Djurayev R.H. va boshqalar. Pedagogik atamalar lug'ati. – T.: Qori Niyoziy nomidagi ITI nashriyoti, 2008.
3. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2004. –44-b.1

4. Ismatova N.B. Texnologiya razvitiya professionalnix interesov budushix prepodavateley posredstvom integratsii pedagogicheskix siklov //Nauchniy jurnal. – 2020. – №. 9. – S. 9-11
5. Yoʻldoshev J.Gʻ., Usmonov S. A. Pedagogik texnologiya asoslari: Qoʻllanma.– T.:Oʻqituvchi, 2004. – 104 b. 13.
6. Gʻaffarov E. Innovatsiya, ijtimoiy innovatsiya va innovatsion faoliyat: ilmiy-nazariy yondashuvlar. NamDU ilmiy axborotnomasi. 2019 yil, 10-son. 153-157 betlar.
7. Qodirova, M. (2021). 6-7 YOSHLI BOLALAR IDROKINI RIVOJLANTIRISHDA MASHGʻULOTLARDAN FOYDALANISH. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2975>
8. Qodirova, M., & Aglamova, S. (2021). 6-7 YOSHLI BOLALAR IDROKINI RIVOJLANTIRISHDA MASHGʻULOTLARDAN FOYDALANISH.
9. Aglamova, S., & Qodirova, M. (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish.
10. Qodirova, M. (2021). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA KOGNITIV JARAYONLARNING RIVOJLANISHI BORASIDAGI TADQIQOTLAR VA TAVSIYALAR.
11. Qodirova, M., & Aglamova, S. (2020). BOLALARDA MADANIY-GIGIYENIK KOʻNIKMALARNI SHAKLLANTIRISH.
12. Qodirova, M. (2021). МАШҒУЛОТЛАР ВА УЛАРНИНГ БОЛА ИДРОКИНИ ШАКЛЛАНИШИДАГИ АҲАМИЯТИ.
13. Qodirova, M. Doʻngboyeva, E., & (2021). TALABALAR MAʼNAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIIY – PSIXOLOGIK OMILLARNING OʻRNI.
14. Qodirova, M., & Aglamova, S. (2021). BUYUK ALLOMALARIMIZ AYOLLAR HAQIDA.
15. Qodirova, M., & Kamolova, S. (2021). ВЛИЯНИЕ РЕЧЕВОЕ ПОВЕДЕНИЕ НА ПСИХОЛОГИЮ ЧЕЛОВЕКА.
16. Qodirova, M. Qarshiboyeva, D., & (2021). КОРРЕКЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОФИЛАКТИКА ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ ШКОЛЬНИКОВ. Изд. «Интернаука».
17. Qodirova, M. (2020). ПРОБЛЕМА САМОСОЗНАНИЯ У ДЕТЕЙ. ООО «Логика+».
18. Qodirova, M., & Aglamova, S. (2021). BOLALARDA MADANIY-GIGIENIK KOʻNIKMALARINI TARBIYALASH SOGʻLOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSI SIFATIDA. Ilm-maʼrifat Markazi.
19. Qodirova, M. (2021). МАШҒУЛОТЛАР ВА УЛАРНИНГ БОЛА ИДРОКИНИ ШАКЛЛАНИШИДАГИ АҲАМИЯТИ.

20. Qodirova, M. (2021). OILAVIY MUNOSABATLAR VA ULARNING INSON PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI.
21. Qodirova, M. (2020). РОЛЬ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ ПОЗНАНИЯ У ДЕТЕЙ 6-7 ЛЕТ. ООО «Логика+».
22. Qodirova, M. (2021). 6-7 YOSHI BOLALAR IDROKINI O'YIN TECHNOLOGIYASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH.
23. Qodirova, M. (2021). O'SMIRLAR PSIXOLOGIYASI VA O'SMIR XULQ-ATVORINING O'ZIGA HOSLIGI . *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(3). извлечено от <https://primedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4021>
24. Qodirova, M. (2021). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BILISH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(3). извлечено от <https://fl.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4025>
25. M. Qodirova. 6-7 YOSHLI BOLALAR IDROKINI RIVOJLANTIRISHDA MASHG'ULOTLARDAN FOYDALANISH. *Журнал Педагогики и психологии в современном ...*, 2021
26. M. Qodirova. BOLALARDA "MEN" NING IDROK QILINISHI. *Журнал Педагогики и психологии в современном ...*, 2020
27. M. Qodirova. ЧЕЛОВЕК И СТРЕСС. *Журнал Педагогики и психологии в современном ...*, 2020
28. Nasimov, D. (2022). O'QUV FAOLIYATI MOTIVLARI OLIMLAR TALQINIDA. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5103>
29. Qodirova, M. (2022). O'SMIRLAR TARBIYASINING QIYINCHILIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5105>
30. Qaxramonovna, Q. M. (2022, March). TARBIYASI QIYIN O'SMIRLAR BORASIDAGI TADQIQOTLAR. In *International Virtual Conference on Language and Literature Proceeding* (Vol. 1, No. 1).
31. Qodirova, M., & Abirqulova, S. (2022). O'SMIRLARGA XOS AGRESSIVLIK VA UNING KO'RINISHLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/6416>
32. Qodirova, M., & Nasimov, D. (2022). MUTAFFAKKIR OLIMLARIMIZ O'QUV FAOLIYATI HAQIDAGI QARASHLARI. *Журнал Педагогики и*

- психологии в современном образовании, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/6415>
33. Dilfuza Qarshiboyeva, КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari
34. Dilfuza Qarshiboyeva, IMPORTANCE OF PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: Том 1 № 4 (2021): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari
35. Qarshiboyeva, D. (2021). ЁШЛАРНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИШДА ИЛМИЙ ИЗЛАНИШЛАР ҲАҚИДАГИ БИЛИМЛАР УЗЛУКСИЗЛИГИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://art.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2906>
36. Ахмедова Насиба Ачиловна, СОҒЛОМ МУҲИТ –СОҒЛОМ ОИЛА ТАЯНЧИ. <https://history.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2966/1982>
37. Hamdamov, X. (2021). ЗНАЧЕНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ЛИЧНОСТИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/3345>
38. Hamdamov, X. (2021). МНОГОЗНАЧИТЕЛЬНОСТЬ ОБУЧЕНИЯ ВОЕННОЙ ПСИХОЛОГИИ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ВОЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1374>
39. Kamolova, S. (2022). ЎҚИТУВЧИ ПЕДАГОГИК ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5114>
40. Qodirova, M. (2022). О‘SMIRLAR TARBIYASINING QIYINCHILIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING KELIB CHIQUISH SABABLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5105>
41. Kamolova, S. (2022). ЁШЛАРНИ МАЪНАВИЙ БАРКАМОЛЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШНИНГ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5191>
42. Ҳайдарбек Ҳамдамов. (2022). ХУШҲОЛЛИКНИНГ ТУЗИЛИШИ ВА АҲАМИЯТИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(12), 533–538. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7337673>
43. Majidov, J. (2022, March). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TA‘LIMI O‘ZLASHTIRISH MUAMMOSINING PEDOGOGIK-PSIXOLOGIK

SABABLARI. In International Virtual Conference on Language and Literature Proceeding (Vol. 1, No. 1).

44.Мажидов Жасур, & Ҳамдамов Ҳайдарбек. (2022). ШАХСГА СТРУКТУРАВИЙ ЁНДАШИШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. *Involta Scientific Journal*, 1(7), 138–148. Retrieved from <https://involta.uz/index.php/iv/article/view/255>

45.Камолова, S. (2022). БЎЛҒУСИ ЎҚИТУВЧИЛАР КОММУНИКАТИВ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5195>

46.Камолова, S. (2022). ТАЛАБАЛАР ИЛМИЙ ДУНЁҚАРАШИНИ ЮКСАЛТИРИШГА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5197>

47.Ахмедова, N. (2022). КИЧИК МАКТАВ YOSHDA GI O‘QUVCHILARDA ТА’ЛИМ ЯРОҒОНИДА МОТИВАТСИЯНИНГ О’РНИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5270>

48.Achilovna, A. N., & ugli, K. S. F. (2022). Information Technologu in the Professional Development of Modem Teachers. *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*, 2(2), 73–77. Retrieved from <https://openaccessjournals.eu/index.php/ijdias/article/view/1054>